

*Orzigel Hamroyeva*

# **NAVOIYSHUNOSLIK**

## (NAVOIY LIRIKASINING QOFIYA TIZIMI)



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

Hamroyeva Orzигул Jalolovna

# NAVOIYSHUNOSLIK

(NAVOIY LIRIKASINING QOFIYA TIZIMI)

O'quv qo'llanma

60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lif  
yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma

"BOOKMANY PRINT"  
TOSHKENT – 2024

UO'K: 894.375

KBK: 83.3(50z)

II 21

Hamroyeva Orzigel Jalolovna.

Navoiyshunoslik (Navoiy lirkasining qosiya tizimi) [Matematika o'quv qo'llanma / O.J. Hamroyeva. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – 114 b.

Qo'llanma Navoiy lirk merosining qosiya tizimi *tadqiqish* bag'ishlangan bo'lib, unda qosiya ilmining shakllanishi, turkiy *qosiyalari* takomilida Navoiyning o'rni, shoir lirk merosida radif va hojibnini badiiy yuki, shoir ijodida qosiyaning bir necha jihatlariga *korish* turlarining qo'llanishi, Navoiyning qosiyaga asoslanuvchi *badiiy san'atlardan* foydalanish mahorati tahlilga tortilgan, bayt va *mirsala* asosida tushuntirilgan.

O'quv qo'llanma 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) yo'nalishi talabalari, tadqiqotchilar, qiyosiy adabiyotshunoslik, mumtoz poetika, mumtoz qosiya, adabiyotshunoslik ilmiga Alisher Navoiy ijodiy merosiga qiziquvchi olimlar, tadqiqotchilar va filolog mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir

Nurboy Jabborov, filologiya fanlari doktori, professor

Taqribchilar

Hamdulla Boltaboyev, filologiya fanlari doktori, professor

Dilnavoz Yusupova, filologiya fanlari doktori, professor

*Qo'llanma Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 11-noyabrdagi 469-sonli buyrug'iiga asosan nashrga tavsiya etilgan.*

ISBN 978-9910-06-227-8

© Hamroyeva O.J.

© "Bookmany print" nashriyoti, 2024.

## So‘zboshi

Navoiy ijodi, uning poetika xususiyatlarini tadqiq etish turkiy dabiyotning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilash barobarida turkiy ruzshunoslik, turkiy qofiyashunoslik, turkiy adabiyotda ilmiade’ning takomili kabi masalalar echimini topishda muhim ahamiyatga ega. Temuriylar davri she’riyati, janr poetikasining larajoti, poetik amallarning amaliyatga tatbig‘i jarayonida Navoiy lirik merosining katta o‘rni bor. Poetik janrlar qonuniyatini belgilashda, obrazlar tizimini tasniflashda, turkiy aruzshunoslik, turkiy qofishunoslikning ilmiy-nazariy asoslarini belgilashda Alisher Navoiy lirikasi asosiy metarial vazifasini bajaradi. Shu jihatdan bugungi kunda shoir asarlari keng planda tadqiq etilmoqda.

Qofiya ilmi qadim tarixga ega bo‘lib, murakkab va mustaqil ilmdir. Qofiya ilmi nazariyasini bilish badiiy matnni poetik tahlil qilishda juda katta ahamiyatga ega. Biz biror she’riy matnni tahlil qilganimizda, qofiya tizimini to‘liq tahlil qilmaymiz, umumiylariga e’tibor qaratamiz, xolos. Vaholanki, mumtoz qofiya nazariyasi keng va o‘z qonuniyatları bor. Shoir qofiyaga juda ko‘p vazifa yuklaydi. Qofiyada shoirning maqsadlari aks etadi. Demakki, qofiyaga yuklangan vazifani to‘g‘ri tahlil orqali anglash mumkin. Xususan, Navoiy ijodida qofiyaning muhim o‘rni bor. Shoir qofiyada badiiy maqsadini aks ettiradi. Lirik asarning butun mohiyati qofiyadosh so‘zlar zamiriga yuklatilgan mazmun orqali anglashiladi. Shuning uchun ham Navoiy qaysi lirik janrda ijod qilmasin, barchasida qofiyaga alohida e’tibor qaratadi. Qofiyadosh so‘zlarni teran mazmun kasb etishi va ohangdorligiga, nozik ma’no ifoda etishiga diqqat qiladi. Natijada shoir lirik merosi ham mazmun, ham shakl jihatidan shoirning poetik tafakkuri natijasi o‘laroq mukammallikka erishgan.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, turkiy qofiyaning o‘ziga xos xususiyatlarining shakllanishi, yangilanishi, arabiylari va forsiy qofiyadan farqli jihatlari Navoiy ijodida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shu jihatdan Navoiy lirik merosining qofiya tizimini tadqiq etish bugungi kun adabiyotshunosligi oldidagi muhim vazifalardan biridir.

Ushbu qo‘llanmada Navoiy lirik merosining qofiya tizimi tadqiq etilgan bo‘lib, poetika va qofiyaga oid risolalarda keltirilgan poetik

qonuniyatlar asosida shoir she'riyatining qosiya imkoniyatlari qilingan. Tahlil quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilgan:

- Qosiya haqidagi ilmning shakllanishi, turkiy qosiya **nazarisi**, manbalari;
- Turkiy qosiya takomilida Navoiyning o'rni;
- Navoiy lirk merosining qosiya tizimi;
- Shoирning badiiy maqsadi, qosiya badiiyati;
- Radisning g'azal kompozitsiyasidagi o'rni;
- Navoiyning mahjub baytlari;
- Qosiyaning tarkibiy tuzilishi: asliy, g'ayrima'muliy, shoygo qosiya;
- Navoiy ijodida raviyning ishtirokiga ko'ra turlari;
- Navoiy lirkasida qosiya harflarining ishtirokiga ko'ra turlarining qo'llanilishi
- Qosiyaning taqt'i imkoniyatlari;
- Radd ul-qosiya san'atmi yoki qosiya aybi?
- Navoiy g'azaliyotida musajja' g'azallarning o'rni.

Shoir lirk merosining qosiya imkoniyatlari mumtoz **qosiy nazariyasi** qonuniyatları asosida bayt va misralar asosida **tahlil** tortildi. Umid qilamizki, ushbu qo'llanma mumtoz qosiya haqidagi ilm va uning nazariyasi bilan tanishishingiz barobarida Navoiyning poetik mahorati va badiiy tafakkurini anglashda yordamchi bo'ladi.

Shoir lirk merosining qosiya imkoniyatlari mumtoz **qosiy nazariyasi** qonuniyatları asosida bayt va misralar asosida **tahlil** tortildi. Umid qilamizki, ushbu qo'llanma mumtoz qosiya haqidagi ilm va uning nazariyasi bilan tanishishingiz barobarida Navoiyning poetik mahorati va badiiy tafakkurini anglashda yordamchi bo'ladi.